

Date: 17<sup>th</sup> May-2026

**ZAMONAVIY O‘QITISH METODLARI VOSITASIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Sanayeva Sevinch**

Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada zamonaviy o‘qitish metodlari asosida ta’lim tizimini joriy etishning pedagogik asoslari yoritib ko‘rsatiladi . Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion tamoyillar , interfaol metodikalar , zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish va shu bilan birgalikda yondashuvlarning ham nazariy ham amaliy jihatlari tahlil qilinib chiqiladi .

**Kalit so‘zlar :** Innovatsiya , interfaol , texnologiya , kommunikatsiya , pedagogik asos , ta’lim samaradorligi , kompetensiyaviy yondashuv .

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогические основы внедрения системы образования, основанной на современных методах обучения. Анализируется использование инновационных принципов, интерактивных методик, современных информационных технологий в современной системе образования, а также теоретические и практические аспекты этих подходов.

**Ключевые слова:** инновации, интерактивность, технологии, коммуникация, педагогические основы, эффективность образования, компетентностный подход .

**Abstract:** This article highlights the pedagogical foundations of implementing an education system based on modern teaching methods. The use of innovative principles, interactive methodologies, modern information technologies in the modern education system, and the theoretical and practical aspects of these approaches are analyzed.

**Keywords:** Innovation, interactive, technology, communication, pedagogical foundation, educational effectiveness, competency-based approach .

**KIRISH**

Bugungi globallashib borayotgan zamonda ta’lim tizimi oldiga bir qancha vazifalar qo‘yilmoqda. Shu jumladan , zamonaviy jamiyatda raqobatdosh , erkin fikrlovchi , kreativ shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etmoqda . Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi . O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi ta’kidlangan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash faqat metodlarni bilish emas , balki o‘qituvchining shaxsiy bilimlari malakasi ,psixologik kompetensiyalari bilan chambarchas bog‘liqlikda bo‘ladi. Zamonaviy metodlarga quyidagilar kiradi: Interfaol metodlar (klaster,aqliy hujum,bahs-munozara); Muammoli ta’lim; Loyihaviy ta’lim; AKT asosida o‘qitish; Refleksiv va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar .



Date: 17<sup>th</sup> May-2026

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Zamonaviy o'qitish tizimida o'quvchilarning dars jarayonida egallagan bilimlarini interfaol metodlarni qo'llash orqali darsni qiziqarli tarzda tashkil etilishi mumkin, lekin darsni qay tarzda o'tishi ko'proq o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagogning kasbiy pozitsiyasi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili sifatida aks etadi. Dunyoqarashni shakllantirishning muvaffaqiyati ko'pincha, o'quvchilarning o'qituvchiga ishonchiga asoslanadi chunki, o'quvchi biror bir ishni qilmoqchimi ko'proq to'ri qilyaptimi va u ishni qanday boshlashi yuzasidan birinchi navbatda o'qituvchidan fikr oladi ishonadi va shu sababli o'qituvchi aytgan yo'lni tutsa va o'shanda muvaffaqiyat qozonadi shu sababli o'quvchining muvaffaqiyat kaliti bu o'qituvchi ishonchi hisoblanadi. Zamonaviy o'qitish metodlari – bu o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan pedagogik usullar majmuasidir. Ushbu metodlar an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Pedagog olimlardan Yan Amos Komenskiy ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik va tizimlilik tamoyillarini asoslagan bo'lsa, Konstantin Ushinskiy ta'limning tarbiyaviy xarakteriga alohida e'tibor bergan. Zamonaviy pedagogik qarashlarda esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi ustuvor hisoblanadi.

Shuningdek, John Dewey ta'limda amaliy faoliyat ya'ni egallangan bilimlar amaliyotda qo'llanilishi va tajribaga asoslangan o'qitish g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiy tajribasi, erkinligi bilan bog'liq bo'lishi lozim.

### **MUHOKAMA**

Pedagogik zamonaviy muammolardan yana biri raqamli texnologiyalar asrida ta'lim samaradorligini oshirish, virtual muhitning ruhiyatga ta'siri, o'quvchilar motivatsiyasi, inklyuziv ta'lim va o'qituvchi -o'quvchi munosabatlarini psixologik jihatdan optimallashtirishni qamrab oladi. Shu bilan birgalikda shaxslashtirilgan ta'lim, virtual o'quv muhitida o'zaro muloqot muammolari dolzarb sanaladi.

Shaxslashtirilgan ta'lim modellarida har bir o'quvchining individual-psixologik xususiyatlari, o'rganish tezligi va uslubiga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ham ta'limda pedagogik muammolarni keltirib chiqarmaydi. Pedagoglarning raqamli savodxonligi, kasbiy stressni boshqarish va zamonaviy o'quvchi bilan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ham zarur. Ushbu muammolarni hal etish orqali zamonaviy ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsad qilinadi. Zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri 5-10 yoshli bolalarda raqamli texnologiyalardan ortiqcha foydalanishning kognitiv rivojlanishiga salbiy ta'siri va e'tibor yetishmovchiligi giperaktivlik buzilishining ortishi ya'ni bugungi kunda yosh bolalarda raqamli texnologiyalarga qaramlik juda kuchaygan shu sababli ota-onalar o'z tinchligini ko'zlab ham farzandlarini yoshligidanoq interlarga o'rgatib qo'yishi oxir oqibatda ular sekinlik bilan oila bilan muloqotda emas balki ijtimoiy tarmoqlarda bo'lib qolmoqda bu yosh bolalarda nutq shakllanmasligiga kech yetilishiga sog'ligiga ham bir qancha tahdidlar



Date: 17<sup>th</sup> May-2026

solmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi, aksincha ota-onalar ko'proq vaqtini farzandi bilan uning vaqtini mazmunli tashkil etishi lozim yosh bolani kichikligidanoq hayot faqat ijtimoiy tarmoqlardan iborat emasligiga o'rgatish kerak.

### **XULOSA**

Zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashlari, bilish faoliyatini shakllantiriladi va ko'nikmalar paydo bo'ladi. Ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan to'g'ri shakllantirish pedagogning kasbiy mahorati va innovatsion, kreativ yondashuviga bog'liq hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, ta'lim jarayonida inklyuzivlikni ta'minlash, har bitta o'quvchi yoshlarning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holatda o'qitish tizimini olib borish, ta'limga kengroq kirib borish imkoniyatlarini birlashtirish bugungi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb muhim vazifalardan biridir. Agar bu muammolarga yechim topilsa, ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va inklyuziv ta'limning keng qamrovligi o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada yaxshi, sezilarli qiladi, hamda muvaffaqiyat imkoniyatini oshirishda o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlardan foydalanish lozim hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifati oshadi, o'quvchilarning bilim darajasi va kompetensiyalari rivojlanadi. Shuningdek, ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ularni samarali qo'llash zamonaviy ta'limning muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali, tizimli uyg'unlashgan va natijador qilib tashkil etishda muhim o'rin egallaydi. Ular o'quvchilarning erkin fikrlashlarini shakllantirish, ijodiy yondashuvini shakllantirish va bilimlarini ham chuqur mustahkam holatda egallab borishlariga va keyinchalik egallagan nazariy bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llay olish imkonini yaratadi. Ta'lim sifati qanchalik natijador bo'lsa jamiyatimizga rivojiga ham muhim mavqega olib chiqadi buning uchun avvalo, ta'lim sifatini samaradorligi yuqori darajada tashkil etilishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, 1997.
3. Yan Amos Komenskiy. "Buyuk didaktika".
4. Konstantin Ushinskiy. "Inson – tarbiya predmeti sifatida".
5. Viktor Bepalko. "Pedagogik texnologiya asoslari".
6. John Dewey. "Demokratiya va ta'lim".
7. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.

